

TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ ASARIDA ILM HAMDA SABR HAQIDAGI MA'LUMOTLAR

Aripova Ma'mura Shurat qizi

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Rahmonova Sevara Abdusattor qizi

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq hamda uning tarbiyaviy ahamiyati va ijtimoiy sohaga oid bir necha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu asarning qisqacha mazmuni ham yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq, ilm, asqoli ilm, sabr, pedagog, axloq, sabr, ma'naviyat.

Аннотация: В данной статье содержатся некоторые сведения о турецком Гулистане или этике Абдуллы Авлони, его образовательном значении и социальной сфере. Также приводится краткое содержание этой работы.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, Тюрки Гулистан или этика, наука, наука, терпение, педагог, этика, терпение, духовность.

Abstract: This article contains some information about the Turkish Gulistan or the ethics of Abdullah Avloni, its educational significance and social sphere. A brief summary of this work is also provided.

Key words: Abdullah Avloni, Turki Gulistan or ethics, science, science, patience, teacher, ethics, patience, spirituality.

Bizga maktablardan Abdulla Avloniy haqida darsliklarda ma'lumotlar berilgan. O'z davrining mashxur shoiri, dramaturg, yozuvchi, pedagog, journalist, xalq va davlat arbabidir. Jadidchilik harakatining faol a'zosi ham hisoblanadi. O'z xalqini zalolat botqog'idan chiqarish uchun hattoki o'z jonini ham tikkan o'zbek madaniyati va

adabiyotining asoschisi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Abdulla Avloniy 1878 – yili 12 – iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida tug'ilgan. Yoshligidan ijodga qiziq shu soha bo'yicha o'z bilimlarini oshirgan. Ilk she'rlarini 15 yoshida chop ettira boshlagan. 1904 – yili Avloniy jadidlar boshqaruvlaridan biri bo'lgan va ilk jadidchilik maktabini ochgan. Xalqni ilmi bo'lishi uchun bor kuch, g'ayratini ishga solgan. Avloniyning: “To'y”, “Qurultoy”, “Layli va Majnun”, “Tarix”, “Turkiy Guliston yohud axloq” nomli ijod qaydnomalari dunyo yuzini ko'rgan. Abdulla Avloniyning Turkiy Guliston yohud axloq asari axloqiy qoidalar, tarbiya, chiroyli xulqlilik, fikr tarbiyasi haqidagi bilimlar jamlanmasidir. Bu asarda xalqni marifatli qiladigan barcha bilim va ko'nikmalar ask etgan. Masalan, biz bilamizki, farzand tarbiyasi biz uchun har zamonda eng oily qadriyatlardan biri bo'lib kelgan. Avloniy ham ushbu asarida tarbiya haqida o'z fik va qarashlarini chuqur bayot etgan:

Tarbiya – «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqiko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmag'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir.¹ Ushbu asar bevosita davrdagi ijtimoiy muhitni olib chiqqan. Chunki, ijtimoiy fikrni rivojlantirish, xalqni o'z fikrlani bayon etishi uchun sharoit yaratib berish juda mushkul bir vazifa bo'lgan o'sha zamonda. Xalqni ma'naviyatli qilish ham juda qiyin ish sanalgan. Ularni Sovet siyosatidagi jab, zulmlarga qarshi harakga chorlash, xalqni dushmanisha aylanishiga sababchi bo'lgan. Lekin, bu ishning asl maqsadi o'z xalqini ijtimoiy rivojlanishi, so'glom tafakkurga ega bo'lib ulg'ayishi uchun qilingan harakligini hamma ham anglayvermagan. Ma'lumki,

¹ “Turkiy Guliston yohud axloq”. Abdulla Avloniy, 3 – bet

inson barkamolligi uning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki uning ma'naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatda yashovchilarning ma'naviy kamolotiga bog'liq. Zero, ma'naviy qashshoq insonlar bilan kelajagi porloq jamiyat qurib bo'lmasligi hayot haqiqatidir. Barkamol insonni tarbiyalash vazifasi esa muayyan darajada maktab zimmasiga yuklatilgan. Demak, ertangi kun egalari bo'lmish farzandlarimiz kamoloti ana shu ilm maskani bilan bog'liq. Bas, shunday ekan, butun e'tiborimizni maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishiga qaratmog'imiz lozim. Bu esa, asosan, tarbiyachi-murabbiyga, u olib borayotgan tarbiyaviy ish samaradorligiga bog'liq.² Turkiy guliston yoxud axloq asarida Ilm deb o'qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yor-do'stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas. Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur. Payg'ambarimiz: «Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguchilardan bo'lmangiz», – demishlar.

Topar ilm ila odam og'li kamol,

Yeturmas kamola jamol ila mol.

Kerak o'rtanur ilm uchun sham'dek,

² <https://xamroyevamastura.blogspot.com/2018/12/turkiy-guliston-yoxud-axloq-asaridagi.html?m=1>

Tanumoq Xudoni ilmsiz mahol.

Talabgor o'lur ilma oqil kishi,

Sotar ilm bozori moli halol.

Talab aylamak farzdur bizga ilm,

Bu amr uzradur er-xotun, yosh, chol.

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur. Chunki boshimizga keladurg'on balo va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasi janobi Haqning irodasi ila o'ldig'i uchun bularg'a sabrsizlik qilgan kishilar ajr va savobdin quruq qolurlar. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobirlarni suyar. Qur'oni karim ichida ko'p yerda sabrni, sobirlarni madh qilmishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazog'a sabr qilmoq farzi ayndur. Inson har bir ishni sabr va matonat ila yurutsa, maqsudiga tinch va rohatda borub yetar. Hamisha saodatda yashar.

Sekin borgan kishi maqsuda yetgay,

Shoshub besabrlar kaj yo'lga ketgay.

Agar sabring bo'lsa nafsingga yo'ldosh.

Seni tavfiqi rabboniga eltgay.

Nafsini sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsini halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozi'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylandurmakg'a quvvati yetar. Shul xususda so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi «ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur», – deyilmish. Arablar: «Assabru miftahul-farah» – «sabr shodlig'ning kalididur», – deyurlar.

Sabr ila har mushkul ish zoyil bo'lur,

Sabr edan maqsudina noyil bo'lur.

Har kishida bo'lmasa sabri jamil,

Nafs ko'yina yurub soyil bo'lur.

Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar,
Sabrsizlar o'z oyog'idan yitar.

Ushbu misralar chuqur mazmunga ega. Chunki sabr haqida hamma gapirishi mumkin, lekin amalga kelganda esa jim qolamiz. Huddi bizga bir turtki yetishmayotganday. Abdulla Avloniy esa ushbu misralari orqali bizga shu turtkini bera oldi. Hattaki, bizning islom dinimiz ham sabr ustiga qurilgan. Sabr bizning eng katta kuchimiz. Har doim har qadamda sabr qilib shukur keltirishimiz bizga yangidan yangi imkon eshiklarini ochadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Abdulla Avloniy o'z xalqi jamiyatini rivoji uchun jon kuydirib mehnat qilgan shaxslardan biri bo'lgan. Xalqni ma'naviyatli bo'lishi uchun uchun ko'plab asarlar yozgan. Turkiy Guliston yohud axloq asari ham shular jumlasidandir. Ushbu asarni o'qib chiqqan insoning dunyoqarashi kengayadi, fikrlarini teran bayon qila oladigan bo'ladi. Asar bejizga o'z davrining eng zo'r asarlarini qatorini egallamaganligini o'qib chiqib anglaysiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy . Turkiston guliston yoxud axloq. Toshkent-2008
2. Mustaqillik davri adabiyoti Toshkent -2004
3. Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar Toshkent-2018
4. "Ma'naviyat yulduzlari". - Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi Milliy meros nashriyoti Uy. 1999 yil.
5. Milliy uyg'onish va o'zbek tili masalalari filologiya. - Toshkent. Universitet. 1993 yil.
6. "Turkiy Guliston yohud axloq". Abdulla Avloniy, 3 – bet
7. <https://xamroyevamastura.blogspot.com/2018/12/turkiy-guliston-yoxud-axloq-asaridagi.html?m=1>